



INNOVATSION JARAYONLAR BILAN VENCHUR KAPITALI O'Rtasidagi BOG'LQLIK VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

PhD **Chulliyev Suhrob Rabbonaqulovich**
Navoiy davlat pedagogika instituti
ORCID: 0000-0001-6442-410X
suhrobchulliyev@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda jahon bozorida raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida innovatsion faoliyat darajasini oshirishga vechur kapitalidan foydalanish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada innovatsion rivojlanish bilan vechur kapitali o'rtaqidagi bog'lqlik ilmiy-nazariy jihatdan yoritilib, unga ta'sir etuvchi omillar atroficha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion jarayon, innovatsion rivojlanish, vechur kapitali, ilm-fan, texnologiya.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ С ВЕНЧУРНЫМ КАПИТАЛОМ И ФАКТОРАМИ, ВЛИЯЮЩИМИ НА ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ

PhD **Чуллиев Сухроб Раббонакулович**
Навоийский государственный педагогический институт

Аннотация. Сегодня, в условиях усиления конкуренции на мировом рынке, использование венчурного капитала для повышения уровня инновационной активности приобретает актуальную актуальность. Исходя из этого, в данной статье описывается взаимосвязь инновационного развития и венчурного капитала с научной и теоретической точки зрения, а также подробно рассматриваются факторы, влияющие на нее.

Ключевые слова: инновации, инновационный процесс, инновационное развитие, венчурный капитал, наука, технологии.

RELATIONSHIP BETWEEN INNOVATION PROCESSES AND VENTURE CAPITAL AND INFLUENCED FACTORS

PhD **Chulliyev Suhrob Rabbonaqulovich**
Navoi State Pedagogical Institute

Abstract. Today, in the conditions of increasing competition in the world market, the use of venture capital to increase the level of innovative activity is of urgent importance. Based on this, this article describes the relationship between innovative development and venture capital from a scientific and theoretical point of view, and the factors influencing it are detailed.

Key words: innovation, innovative process, innovative development, venture capital, science, technology.

Kirish.

Jahonda globallashuv tendensiyaning keskinlashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hamda ilm sig'imkorligi yuqori bo'lgan tovar va xizmatlar diversifikatsiyasining kengayishi innovatsion jarayonlarni moliyalashtirishning turli xil muqobil variantlarini qo'llash tendensiyanini kuchaytirmoqda. Bugungi kunda jahon bozorida raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida innovatsion faoliyat darajasini oshirishga vechur kapitali orqali erishish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsion jarayonlar va vechur kapitalidan foydalanish darajasini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlari xorij olimlari tomonidan muayyan darajada o'r ganilgan (Schumpeter, 1912; Kortum, Lerner, 2000).

Innovatsion jarayonlarni amalga oshirishning ilmiy-amaliy jihatlarini o'r ganish bilan bog'liq tadqiqot ishlari MDH mamlakatlaridagi qator olimlarning ilmiy izlanishlarida ma'lum darajada tadqiq etilgan (Kondratyev, 1925).

Shuningdek, Ammosovning (2004) fikriga ko'ra, vechur kapitali bu - ilmiy tadqiqot faoliyati natijalarini yangi mahsulot yoki xizmatlarning raqobatda yetakchiga aylantiradigan kompaniyalarning "bozorga yorib kirishi" uchun resurslar manbайдир.

Vaxabovning (2020) fikriga ko'ra, vechur kapitali tashqi investor tomonidan yangi, o'sib borayotgan va bozorda o'z o'mini egallashga harakat qilayotgan kompaniyalarni moliyalashtirish uchun xususiy qo'yilmalarni amalga oshirishda foydalaniladigan kapital.

Bir qator xorijlik tadqiqotchilar iqtisodiy adabiyotlarda vechur kapitalini innovatsion loyihalarga kiritilgan aksiyalar evaziga riskli qo'yilmalar, xususan, kompaniyaning innovatsion rivojlanishiga kiritilgan kapital deb hisoblashadi (Drucker, 1985).

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolaning asosiy konsepsiyasini innovatsion jarayonlar va vechur kapitali o'rta sidagi bog'liqlikning iqtisodiy mazmun mohiyatini ochib berish tashkil qiladi. Maqolada ilgari surilgan yondashuvlar va qarashlarni asoslash maqsadida ilmiy bilishning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiylik, umumlashtirish, ilmiy abstraksiya, o'zaro taqqsolash kabi usullardan keng foydalanishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Innovatsiyaga birinchidan, innovatsion faoliyat natijasi sifatida, ikkinchidan, yangi g'oyani yakuniy mahsulotga aylantirish jarayoni, ya'ni yangilikni tijoratlashirish jarayoni sifatida qarash mumkin.

Innovatsiyaning o'ziga xos belgilari quyidagilardan iborat:

- yangilik (radikal yangi o'zgarishlar, yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi yoki nisbatan o'zgarishlar, ob'yekt parametrlari va xususiyatlarining yaxshilanishi);
- talabgirlik (bozorga oid, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqalar);
- amalga oshirish imkoniyati (foydalanishda cheklanmaganlik);
- barqaror foydali natija (ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar asosiy parametrlarining barqaror ravishda yaxshilanishi).

Yangilik va kashfiyotlar ularning tijoratlashuvidan keyingina innovatsiyaga aylanadi (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion jarayon natijalari (Chulliyev, 2024)

Shumpeter (1912) birinchilardan bo'lib "kashfiyot" va "yangilik" tushunchalarini bir-biridan ajratib ko'rsatdi. "Yangilik" deganda u yangi texnologik bilimlar, yangi tovar va xizmatlar, ta'minot manbalari va sanoat tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etishni nazarda tutgan.

Kondratyev (1925) "ko'tariluvchi" va "tushuvchi" sikllar to'lqinining texnik kashfiyotlar va ulardan amaliy foydalanish to'lqinlari bilan ob'yektiv aloqasini asoslab bergan.

Saymon Kuznets bir tarixiy davrdan boshqa davrga o'tish asosidagi davriy yangilik tushunchasini kiritdi, shuningdek, industrial davridagi iqtisodiy o'sish sur'atlarini revolyutsion tezlashtirish davriy yangilik tomonidan keltirib chiqarilganligini ta'kidlagan – o'sishning yangi manbasi ilm-fanning jadal rivojlanishi bo'ldi.

Shu nuqtai nazardan innovatsiyalarni tasniflash iqtisodiy rivojlanish omillari tizimida mazmun va ularning rolini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalarning zamonaviy tasnifi kapital va mehnatni tejovchi, texnologik, ekologik, iqtisodiy, davriy, asosiy, takomillashtiruvchi innovatsiyalar, mikro-innovatsiyalar, soxta innovatsiyalar, antiinnovatsiyalar va boshqalarni ajratib ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy rivojlanish omillari tizimida innovatsiyalarning turli ta'riflarini ko'rib chiqish va taqqoslash asosida innovatsiyalarning bir nechta turlarini o'z ichiga olgan aniq tasniflashlarni amalga oshirish lozim. Bunda innovatsiyalar – bu yangi, tarixda o'xhashi bo'limgan va mehnat natijalarida ifodalangan iqtisodiy resurslar yoki ishlab chiqarish omillarining yangi birlashuvi ekanligidan kelib chiqish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi mahsulot innovatsiyalari (ishlab chiqarish-texnik yoki iste'mol maqsadidagi yangi mahsulot) va texnologik innovatsiyalarni yaratish va tadbiq etishga, ya'ni mahsulot tayyorlashning yangi texnologiyalari va usullariga asoslanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalar to'g'risidagi bizning tushunchamiz, uning iqtisodiy resurslarning yangi birlashuvi sifatidagi (Y.Shumpeter) ta'rifidan kelib chiqar ekan, innovatsiyalarga, shuningdek, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari, jamiyatning tabiiy, mehnat, tadbirkorlik, investitsiyaviy (ishlab chiqarish mablag'larida moddiylashgan kapital) va moliyaviy resurslarini birlashtirishning yangi tashkiliy-huquqiy shakllari taalluqli. Shu bilan birga bizning fikrimizcha, innovatsiyalarning yangi turi bu – o'ziga xos xususiyati iqtisodiy yo'naltirilganlik, venchur kapital, kichik tadbirkorlik va yuqori risklar bilan bog'liq bo'lgan venchurli innovatsiyadir.

Iqtisodiy rivojlanish fan-texnika taraqqiyotining kuchayishi bilan birga kechadi va uning natijasi texnologik rivojlanish darajasining o'sishiga olib keladi.

Zamonaviy fanda fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va innovatsiyalarni tadbiq etishga asoslangan xo'jalik o'sishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan iqtisodiy rivojlanishning bir nechta asosiy modellari ta'kidlanadi. Bular quyidagilar:

- resurs modeli;
- intellektual-donorlik modeli;
- innovatsion model.

Innovatsion konsepsiylar g'oyalarni boshidan to oxirigacha amalga oshirish bilan bog'liq jarayonni qamrab olishi lozim. Umuman olganda, innovatsion jarayon – bu yangilikning g'oyadan to mahsulotgacha shakllanishi va bozorga tarqalishidir.

U yoki bu mahsulot xususiyatlarini innovatsiyalar yordamida o'zgartirish innovatsion jarayon hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Innovatsion jarayon. (Chulliyev, 2024)

Innovatsion jarayon yangi g'oya paydo bo'lganidan tortib to bozorda sotiladigan mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish amalga oshirilgunga qadar bo'lgan o'zaro bog'liq bosqichlar murakkab zanjirini ifodalaydi. Umumiy jihatdan innovatsion jarayon bu voqeа-hodisalarining ketma-ketlikdagi zanjiri bo'lib, uning davomida yangilik oddiy bir g'oyadan muayyan mahsulot, texnologiya yoki xizmatgacha "pishib yetiladi" va xo'jalik amaliyatida tarqaladi.

Bu jarayonni quyidagi sxema ko'rinishida aks ettirish mumkin (Salixov, 2013):




bu yerda: F_t – fundamental tadqiqotlar; A_t – amaliy tadqiqotlar; I – ishlanmalar;

L – loyiҳalar; Q – qurilish; O' – o'zlashtirish; S_i – sanoat ishlab chiqarish;

M – marketing; S – sotuv.

Innovatsion jarayon biror-bir iqtisodiyot sub'yekting innovatsion faoliyatini, ya'ni yakunlangan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar yoki boshqa fan texnika yutuqlarining natijalarini bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashtirilgan ma'sulotga, amaliy faoliyatda foydalilaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga, shuningdek, bu bilan bog'liq qo'shimcha tadqiqot va ishlanmalarga joriy qilishga yo'naltirilgan jarayondir (3-rasm).



3-rasm. Innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari. (Chulliyev, 2024)

Iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichi postindustrial jamiyat iqtisodiyoti sifatida talqin qilinadi. Postindustrial iqtisodiyot jamiyatni industrial iqtisodiyot jamiyatidan farqli ravishda tovarlarni emas, xizmatlarni yaratishga ustuvor ahamiyat beradi. Bu esa, o'z navbatida, axborotlar, bilimlar, ilmiy ishlasmalar, ta'limgar darajasi ishchilarning kreativ fikrlashining ustuvor ahamiyatiga asoslanadi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi bilan vechur kapitali o'rtaсидаги bog'liqlik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- birinchidan, vechur kapitali o'z faoliyati bilan ilmiy tadqiqotlar muhitida kuchlar taqsimotiga ta'sir eta oladigan bozorning yangi xo'jalik sub'yektlari yaratilishiga ko'maklashadi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda YaIM tarkibining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, aynan vechur kapitali yordami evaziga Apple Computer, Intel, Federal Express, Dec, Microsoft, Amazon, Facebook (META) kabi kompaniyalar jahon liderlariga aylangan;

- ikkinchidan, vechur kapitali dinamik, yuqori kengayish va rivojlanish salohiyatiga ega bo'lgan sohalarni qo'llab-quvvatlash orqali ushbu kompaniyalarning ichki bozordagi faoliyatda raqobatbardoshlikka erishishi, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga ko'maklashadi. Masalan, biotexnologiyalar, axborot kommunikatsion texnologiyalar, nanotexnologiyalar, fintech va boshqa sohalarning xalqaro darajada keng rivojlanishi;

- uchinchidan, vechur kapitali yuqori malakali mutaxassilar bandligining o'sishiga, inson kapitalini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga ko'maklashadi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat hukumati tomonidan bilimlar iqtisodiyotiga beriladigan bahoni asoslaydi;

- to'rtinchidan, vechur kapitalini qo'llash iqtisodiyotning an'anaviy sohalarini yangilash va modernizatsiyalashga yordam beradi;

- beshinchidan, yirik integratsiyalashgan tuzilmalar va korporatsiyalar vechur kapitalini jalb qilishga intilgan holda o'z boshqaruv prinsiplari va tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishga majbur bo'ladilar.

Shunday qilib, vechur kapitalining mamlakat innovatsion rivojlanishidagi rolini baholash qiyin. Vechur kapitali ilg'or texnologiyalar sohasidagi innovatsion firmalar, innovatsion ishlasmalarni uzoq muddatli investitsiyalashga mo'ljallangan. Bundan tashqari, u riskli kapital evaziga an'anaviy sohalar va korxonalarini kengaytirish va modernizatsiyalash uchun ishlatiladi. Vechur kapitali biznes sohasida yangi texnologik, ilmiy asoslangan ta'limga ham, boshqa bozor va moliyaviy tuzilmalarga ham innovatsion jarayonlarda turli investitsiyalarni moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlangan vechur kapitali industriyasi iqtisodiyotning asosiy, ajralmas elementi hisoblanadi hamda u mamlakatning ilg'or texnologiyalarda jahondagi raqobatbardoshlik pozitsiyasini saqlab qolish imkoniyatini beradi. Ko'pgina iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda yuqori texnologiyali kompaniyalarning dastlabki moliyalashtirilishi vechur investorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Vechur kapitali bozorining o'zi aslida bir tekisda rivojlanmaydi. Uning rivojlanish tarixi barchaga ma'lum bo'lgan iqtisodiy haqiqat to'g'risida so'zlaydi: iqtisodiyotdagi ko'plab jarayonlar siklli rivojlanishga duchor bo'ladi va vechur kapitali jahon bozorining rivojlanish jarayoni ham bundan mustasno emas. Umuman olganda, tadqiqotchilar uning tarixini shartli ravishda uch davrga bo'ladilar: klassik, yangi va eng yangi davr (1-jadval).

1-jadval
Vechur kapitali jahon bozorining rivojlanish davrlari (Cho'lliyev, 2020)

Vechur davri	Klassik davr 1960-1970-yillar	Yangi davr 1980-1990-yillar	Eng yangi davr 2000-yildan hozirgi vaqtgacha
Rivojlanish yo'nalishlari va innovatsiyalarni taqbiq etish	yarimo'tkazgichlar, biotexnologiyalar	Shaxsiy kompyuterlar, meditsina, iste'mol tovarlari	Axborot texnologiyalari, biotexnologiyalar, nanotexnologiyalar
Raqobat darajasi	Past	Yuqori	Yuqori
Marketing strategiyasi elementlaridan foydalanish	Foydalanilmaydi	Faol foydalaniladi	Faol foydalaniladi

Industrial iqtisodiyotdan innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim davrlarini, ushbu yo'l orqali rivojlanish jarayonini ta'minlovchi asosiy an'analar, katalizatorlarni kuzata turib, vechur kapitalning iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion yo'lini amalga oshirishga ko'maklashuvchi instrumentlar orasidagi o'rnini aniqlash mumkin (4 - rasm).

Vechur kapitalining iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy bosqichi postindustrial jamiyat iqtisodiyoti hisoblanib unda fan-texnika taraqqiyoti va aholi daromadlarining sezilarli darajada o'sishi natijasida iqtisodiyotda tovar ishlab chiqarishdagi ustuvorlik istiqbolli resurs sifatida axborotlar va bilimdan foydalangan holda xizmatlar yaratishga o'tadi;

Yangi iqtisodiyot postindustrial jamiyat iqtisodiyoti rivojining bir pog'onasi hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlanishning harakatga keltiruvchi kuchlari orasida inson omili rolining ustuvorligi; bilim farovonlikning bosh manbasi, iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish kuchi; bozorning globallashuvi, bozor jarayonlari yuqori dinamikasi, bozorning tezkor reaksiyasi, bozorlarning virtuallashuvi, shuningdek, axborot kommunikatsion texnologiyalarning sezilarli darajada takomillashuvi va axborotning asosiy ishlab chiqarish resurslaridan biri sifati namoyon bo'lishi;

Postindustrial jamiyat – bu shunday jamiyatki, unda fan-texnika taraqqiyoti va aholi daromadlarining sezilarli darajada o'sishi natijasida iqtisodiyotda tovar ishlab chiqarishdagi ustuvorlik istiqbolli resurs sifatida axborotlar va bilimdan foydalangan holda xizmatlar yaratishga o'tadi.



Yangi iqtisodiyot – bu postindustrial jamiyat iqtisodiyotining axborot kommunikatsiya texnologiyalari takomillashuvi, sanoatda innovatsion texnologiyalarni faol qo'llash, bozorming globallashuvi va boshqa ishlab chiqarish resurlari omillari bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish bosqichidir.



Rivojlanishning innovatsion yo'li – yuqori texnologiyalar, birinchi navbatda axborot texnologiyalarining zamонавиј ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omiliga aylanishi; turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini hisobga olgan holda barcha tomonlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishdan foydalanib biznes, jamiyat va davlat o'rtaсидаги o'saro munosabatlarning samarali mexanizmlarini yaratish; tadbirkorlik tashabbuslarining o'sishi uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, kompaniyalarning investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish. Chunki aynan xususiy biznes iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.



Venchur kapitali – bu ilg'or texnologiyalar sohasidagi innovatsion firmalar kabi mavjud korxonalarni ham ularni kengaytirish va modernizatsiyalash maqsadida uzoq muddatli investitsiyalash vositasi.

4-rasm. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida venchur kapitalining o'rni (Chulliyev, 2024)

Venchur kapitali ilg'or g'oyalarni tijoratlashtirish, yangi innovatsion kompaniyalar va butun bir sohani tashkil etish hamda mavjudlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. U korxonalarning rivojlanish turini qayta yo'naltirishga undash va ularning ilmiy-texnik hamda innovatsion faoliyati o'sishini rag'batlantirish orqali ulkan motivatsion rol o'ynaydi. Rivojlanayotgan innovatsion firmalar ko'pincha yangi texnologiyalar ishlab chiqaruvchilari, yirik korxonalar uchun yangi turdag'i mahsulotlar va innovatsion rivojlanish manbalarini yaratishda generator vazifasini bajarib, ularning investitsiya va innovatsion siyosatini qayta yo'naltirish, yuqori raqobatbardoshlikka imkon qadar tezroq erishish uchun sharoit yaratadilar.

Qator tadqiqotlar venchur kapitali innovatsiyalar va yangi yuqori texnologiyalar kompaniyalarni tashkil etishni rag'batlantirishi yordamida alohida metodlarning mohiyatini ochib beradi (Cho'lliyev, 2022). S.Kortum va D.Lerner 1960-1990 yillarda AQSHdagi 20 ta sanoat sohalarining faoliyatini tahlil qilib shuni aniqlashdiki, venchur kapitalining ishtiroti patent faoliyati hajmining 5-18%ga oshishiga olib keladi (Kortum, Lerner, 2000). T.Xellmann va M.Puri silikon vodiysining yangi tashkil etilgan 173 kompaniyalari haqidagi ma'lumotlardan foydalangan holda venchur moliyalashtirishdan foydalanuvchi

kompaniyalarda mahsulotlarni bozorga chiqarish davri sezilarli qisqarganini ko'rsatib berdilar (Sergienko, Frenkel, 2006).

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishida vechur kapitalining rolini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Minidarajada vechur kapitali texnologik bilimlar, boshqaruv resurslari va ma'lumotlardan foydalanish darajasining o'sishiga yordam beradi.

Mikrodarajada vechur kapitali kichik va o'rta innovatsion korxonalar rivojlanishining manbasi sifatida namoyon bo'ladi.

Mezodarajada vechur kapitali qator yuqori texnologiyali sohalarning rivojlanishini rag'batlanlantirish funksiyasini bajaradi.

Makrodarajada vechur kapitali iqtisodiyotni strukturali modernizatsiyalash, uning rivojlanishning innovatsion ssenariysiga o'tishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Megadarajada vechur kapitali transmilliy vechur kapitali shaklini qabul qilgan holda bilim va texnologiyalarning millatlararo transferi jarayonini faollashtirgan holda va butun dunyo hamjamiyatining umumiyligi ilmiy-texnologik darajasini oshirgan holda global jahon xo'jalik aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Vechur kapitali "fan-ishlab chiqarish-bozor" zanjirining barcha bo'g'inxulari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlash orqali iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshiruvchi innovatsion faoliyatning o'ziga xos investitsion mexanizmini yaratishga yordam beradi. U iqtisodiyotning innovatsion yangilanishini harakatga keltiruvchi kuch, uning o'sishini tezlatuvchi omil.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Schumpeter J. (1912) *Theorie der wirtschaftlichen Entwicklung* – Berlin: Duncker & Humblot. P. 45-49

Qudratov, Z. (2024). MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHIYATINING SHAKLLANISHI VA UNING O'ZGARISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR. *Solution of social problems in management and economy*, 3(4), 116-120.

Kortum S., Lerner J. (2000) *Assessing the Contribution of Venture Capital to Innovation* // RAND Journal of Economics. Vol. 31. No. 4. P. 674-692.

Кондратьев Н. (1925) Большие циклы конъюнктуры // Вопросы конъюнктуры. Том 1, Выпуск 1, С. 78.

Аммосов Ю.П. (2004) Венчурный капитализм: от истоков до современности. СПб.: РАВИ, 2004. –С 408.

Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. (2020) *Yashil iqtisodiyot: Darslik*. –Toshkent.: "Universitet". – B 90.

Drucker P.F. (1985) *Enterpreneurship and innovation*. NY: Harper a Row.277 p.

Salixov S.A. (2013) *Innovatsion faoliyatni boshqarish*. Darslik. -T.: TDIU. -B 34.

Chulliyev S.R. (2024) *Innovatsion jarayonlar va vechur kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish*. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent.

Чўллиев, С. Р. (2020). ИҚТИСОДИЁТНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШДА ВЕНЧУР КАПИТАЛИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ. Иқтисодиётда инновация, 4(3).

Cho'lliyev, S. (2022). O 'ZBEKISTONDA TRANSFORMATSIYALASHAYOTGAN IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA VENCHUR KAPITALNING O'RNI. *Economics and Innovative Technologies*, 10(5), 297-306.

Сергиенко Я., Френкель А. (2006) Венчурные инвестиции и инновационная активность. // Вопросы экономики - №5.- С. 118